

“TASDIQLAYMAN”

“Toshshaharnur” DUK

direktori v.b.

Rajabov U.R.



Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi

“Toshshaharnur” DUK hisoboti

1. “Toshshaharnur” DUKda mutaxassislar, bo‘lim va xizmat boshliqlari ishtirokida 2024-yil 23-iyulda “Kasbiy halollik: xodimlar va ularning korruptsiyaning oldini olishdagi roli va korruptsiyaga qarshi kurash” mavzusida ma’ruza o‘tkazilib, tashkilotda qabul qilingan korruptsiyaga qarshi kurashish choralari bo‘yicha barcha bo‘lim va xizmat boshliqlaridan tilxat olingan va ular tomonidan o‘z xizmat va bo‘limlarida korruptsiyaga qarshi kurash bo‘yicha suhbatlar o‘tkazilishi belgilangan.

2. Oxirgi 3 yil davomida monopoliyaga qarshi organlar tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar va berilgan taqdimnomalar o‘rganishi natijasi:

- 2022-yil - O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2022-yil 24-avgustdagi davlat xaridlari sub’ektlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda shartnomalar tuzish holatlari bo‘yicha ma’lumotnomasida 12 ta shartnoma bo‘yicha qoidabuzarliklar aniqlangani ko‘rsatilgan;

- 2023-yil –Toshkent shahar hokimligi Korruptsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limining 2023-yil 14-fevraldagi ma’lumotnomasida “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonunning 14-moddasida tanlov savdolarini o‘tkazishda raqobatni cheklashga olib kelgan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar taqiqlangan;

- 2024-yil - O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining 2024- yil 9-sentabrdagi davlat xaridlari sub’ektlari o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘yilgan holda shartnomalar tuzish holatlari bo‘yicha ma’lumotnomasida 2022-2023 yillar hamda 2024-yilning 6 oyi davomida 29 ta shartnoma “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuninig 14-moddasida nazarda tutilgan manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi talablariga zid ravishda tuzilganligi aniqlangani ko‘rsatilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan aniqlangan qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ygan mas’ul xodimlarga nisbatan vakolatli organlat tomonidan tegishli choralar ko‘rilgan.

3. O‘tkazilgan tekshirishlarda aniqlangan qoidabuzarliklar va berilgan taqdimnomalar o‘rganib chiqilgan va mazkur xatarlarning oldini olish maqsadida:

- 2024-yil 12-avgustdan boshlab korxona faoliyatida monopoliyaga qarshi tizimini joriy etish va monitoring qilish maqsadida direktorning umumiy masalalari bo‘yicha o‘rinbosari R.Azizov mas’ul shaxs etib tayinlangan;

- monopoliyaga qarshi tizimni joriy etish va ishlash tartibini belgilovchi ichki Nizom ishlab chiqilib, belgilangan tartibda tasdiqlangan;

- raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xatarlarini kamaytirish va ularning oldini olish maqsadida “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib tasdiqlangan, unda belgilangan vazifalarning amalga oshirilishi ta’minlangan.

- davlat xaridlari sub'ektlari o'rtasida manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilgan holda shartnomalar tuzish holatlarining oldini olish maqsadida turli tashkilotlar bilan tuzilgan 562 ta shartnomadan 159 tasi bekor qilingan. Bekor qilinishning asosiy sabablari – shartnomalarda ko'rsatilgan moddiy tovar boyliklarni yetkazib berilmagani yoki ularning talabga javob bermasligi bo'lgan.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi "2023 yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-57-sonli Qarorini bajarish maqsadida korxonada 2024-yil noyabr oyida 581,0 m² hajmdagi 119 kvt quvvati bo'lgan quyosh panellari o'rnatildi.

5. Mehnat intizomini mustahkamlash maqsadida 2024-yilning dekabr oyida korxonada va ma'muriy-hududiy tumanlarda joylashgan xizmatlari binolarida xodimlarning kelish-ketishini nazorat qilish yangi tizimi (fes-kontrol) o'rnatildi.

6. Korxonaning bo'lim va xizmat boshliqlari ishtirokida O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 6-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-231-sonli Qonuni (2024-yil 6-dekabrda kuchga kirgan) bo'yicha 2025-yil 8-yanvarda suhbat o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Direktor o'rinbosari

R.M. Azizov